

O'ZBEK TILINI IKKINCHI CHET TILI SIFATIDA O'RGANISH JARAYONIDA MASHQLAR TIZIMI

Beg'am Xolmanovna QARAYEVA

O'zbek tili o'qituvchisi, p. f. n.

Moskva davlat lingvistika universiteti

Moskva, Rossiya

СИСТЕМА УПРАЖНЕНИЙ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА КАК ВТОРОГО ИНОСТРАННОГО

Бегам Холмановна КАРАЕВА

К.п.н., преподаватель узбекского языка

Московский государственный лингвистический университет

Москва, Россия

SYSTEM OF EXERCISES IN THE PROCESS OF STUDYING THE UZBEK LANGUAGE AS A SECOND FOREIGN LANGUAGE

Begam Kholmanovna KARAYEVA

Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogics, Teacher of the Uzbek Language

Moscow State Linguistic University

Moscow, Russia karaeva_61@mail.ru

UDC (УЎК, УДК): 13.00.02

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Qarayeva B.X. O'zbek tilini ikkinchi chet tili sifatida o'rganish jarayonida mashqlar tizimi.// O'zbekistonda xorijiy tillar — 2022. — No. 2 (43). — B. 127-137.

<https://doi.org/10.36078/1653034500>

Received: March 24, 2022

Accepted: April 17, 2022

Published: April 20, 2022

Copyright © 2022 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tilining ikkinchi chet tili sifatida o'qitilishi jarayonida mashqlar tizimi bilan ishlash, amaliy mashg'ulotlarni olib borish davomida o'quv jarayonini qiziqarli va mazmunli tashkil etish zaruriyati, hozirgi davr o'qitish metodikasi talablaridan kelib chiqqan holda, mashqlar tizimini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Chet tilini, jumladan, ikkinchi chet tilini o'qitish metodikasi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar yuzasidan olimlarning mashqlar tizimi bilan ishlashga doir fikrlari, takliflari tahlil qilinadi, ular tomonidan tavsiya qilinadigan tilga doir bilimlarni va talabning til tayyorgarligini mustahkamlovchi, fonetik, leksik va grammatik, nutqiy, kommunikativ va ijodiy mashqlar, shartli-nutqiy tizimi haqida, ularning foydali jihatlari, o'quv jarayonini boyitishi haqida izohlar beriladi. Mashqlar tizimi bilan ishlashda kompetensiyali yondashuvning samaradorligi alohida ajratib ko'rsatiladi. Muallif tomonidan mashqlar tizimi uchun qo'yiladigan talablar mezonlar sifatida belgilanadi. Har bir mashqlar to'plamlarini tuzib chiqish uchun hisobga olinishi zarur bo'lgan jihatlari ko'rsatib beriladi. Maqolada har bir guruh mashqlaridan namunalar beriladi. Nutqiy faoliyatni shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi bir qator mashqlar tavsiya qilinadi. Ya'ni nutqiy va kommunikativ mashqlar sifatida nutqiy faoliyatning barcha turlariga oid mashqlar bilan ko'proq ishlash tavsiya etiladi. Tinglab tushunish, o'qish, gapirish va yozuvga doir mashqlarning dolzarb ekanligi ko'rsatib beriladi. Shuningdek, maqolada talabalarni tarjima faoliyatiga o'rgatuvchi mashqlarning nutq faoliyatini o'stirishda muhim ekanligi bayon qilinadi, bu guruh mashqlari bilan ishlash davomida talabalarning ijodkorligini o'stiruvchi bir necha topshiriqlar berish zarurligi haqida batafsil ma'lumotlar va tavsiyalar beriladi.

Kalit soʻzlar: mashqlar tizimi; mashqlarning turlari; fonetik; leksik va grammatik bilimlarni oʻzlashtirish mashqlari; ogʻzaki va yozma nutqqa oʻrgatish mashqlari; tarjima faoliyatiga oʻrgatish boʻyicha mashqlar; transformatsion mashqlar.

Аннотация. В статье анализируются вопросы организации работы с упражнениями в процессе преподавания узбекского языка как второго иностранного, говорится о необходимости наполнения учебного процесса содержательным, интересным и значимым материалом. Проанализирована система работы с упражнениями, исходя из требований современной методики преподавания иностранных языков. Также в статье излагаются мнения, рекомендации современных учёных, которые исследовали систему упражнений в методике преподавания иностранных языков. Анализируются рекомендуемые ими системы упражнений по фонетике, лексике и грамматике, а также речевые, коммуникативные и творческие, которые развивают языковую подготовку студентов, рассматриваются условно-речевые упражнения, их эффективность. Особо выделяется эффективность компетентного подхода работы в системе упражнений, определяются автором статьи требования и критерии этих упражнений. Подчёркивается актуальность упражнений по всем видам речевой деятельности — аудированию, чтению, говорению и письму. В статье также говорится о важности упражнений по работе с переводческой деятельностью, что в этой системе упражнений необходимо разработать несколько заданий, которые развивают творческие способности студентов. В статье представлены образцы из каждой группы упражнений.

Ключевые слова: система упражнений; виды упражнений; упражнения по обучению устной и письменной речи; упражнения по обучению переводческой деятельности; трансформационные упражнения.

Abstract. The article analyzes the organization of work with exercises in teaching the Uzbek language as a second foreign language. It stresses on the need to organize the work of the educational process more meaningful. An exercise system is analyzed based on the requirements of the contemporary methods of teaching foreign languages. The study outlines the opinions and recommendations of scientists, such as E. I. Passov, M. S. Ilina, I. N. Bim, E. P. Shubin, E. Yu. Sosenko, who explored the exercise system in teaching the methodology of foreign languages. Systems of exercises improving communicative and creative competences on phonetics, vocabulary and grammar are analyzed. Speech exercises are considered to be effective in enriching the learning process. The efficacy of the competence approach in the system of exercises was mainly allocated. The requirements for these exercises have been put forward. Several exercise samples are given. Activities such as speech and communicative exercises emphasize the relevance of exercises for all types of speech activity as auditing, reading, speaking and writing. The article analyzes the questions of working in the exercise system, organizing and improving the work with exercises.

Keywords: exercise system; exercises; types of exercise; phonetic; lexical and grammatical knowledge training exercises; training of transformation training; teaching activities; transformation exercise.

Kirish. Chet tillarini o'rganishda mashqlar tizimi alohida o'rin tutadi. Mashqlar tizimi ustida ishlash — har bir tilni o'rganish jarayonida olingan bilimlarni mustahkamlovchi vosita vazifasini o'taydi. Ona tilini o'rganish jarayonida mashqlarni bajarish bo'yicha egallangan tajriba chet tillarini o'rganish davomida yordamga keladi. Mashqlarning turlari, ko'rinishlari muayyan tizimni tashkil qiladi. Chet tillarini o'rganishda mashqlar tizimi alohida o'rin tutadi. Nutqiy faoliyat turlarining har birini o'rganish jarayonida mashqlar yordamida til materialini o'zlashtirish til o'rganuvchilarning bilimlarini yanada mustahkamlaydi.

Mashqlar tizimi ustida ishlash esa chet tili o'qituvchilari zimmasiga jiddiy mas'uliyat yuklaydi. Mashqlarning muayyan tizim asosida bo'lishi ulardan unumli va to'g'ri foydalanishning muhim shartidir. Chet tilini o'rganish jarayonida bajariladigan mashqlar qancha samarali bo'lsa, yuqori natijalarga erishishga olib keladi, til o'rganishda juda foydali bo'ladi. Shuning uchun ham mashqlar tizimini ishlab chiqish, ularni aniq va yaxlit tizimga solish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Hozirgi davrgacha chet tili o'qitish metodikasida ko'plab mashq tizimlari ishlab chiqilgan bo'lib, ularda turlicha yondashuvlar kuzatiladi, shunga qaramasdan, ularning har biri chet tillarini o'rganishda mashqlar tizimini yanada takomillashtirishga va samarador bo'lishiga yordam beradi.

Ko'plab tadqiqotchilar, olimlar, metodistlar tomonidan mashqlar tizimini ishlab chiqish bo'yicha izlanishlar olib borilgan. Tadqiqotimizda Ye.I. Passov tomonidan taklif etilgan va boshqa ko'plab tadqiqotchilar, olimlar va metodistlar tomonidan tavsiya etilgan mashqlar tizimidan foydalanildi. Mashqlar tizimida muloqot madaniyatiga tayyorlashga yo'naltirilgan metodika tavsiya etiladi (4, 4–9).

Nutqiy faoliyat turlarining har birini o'rganish davomida mashqlar yordamida til materialini o'zlashtirish til o'rganuvchilarning bilimlarini yanada mustahkamlaydi. Mashqlar tizimi ustida ishlash esa chet tili o'qituvchilari zimmasiga alohida mas'uliyatni yuklab qolmaydi, balki bu mashqlar ustida muntazam ishlash, ularni yangilab, doimiy ravishda boyitib borilishini ham talab qiladi. Mashqlarning muayyan tizim asosida bo'lishi ulardan unumli va to'g'ri foydalanishning muhim shartidir. Chet tilini o'rganish jarayonida bajariladigan mashqlar qancha qiziqarli va foydali bo'lsa, aniq bir natijalarga erishishga olib keladi, til o'rganishda yordam beradi. Shuning uchun ham tegishli sharoitlardan kelib chiqqan holda, mashqlar tizimini ishlab chiqish har bir davrda dolzarb muammolardan biri bo'lib qolaveradi.

Mashqlar o'quv jarayoni mazmunining asosini tashkil etuvchi element hisoblanadi. Shuning uchun ham chet tillarini o'qitish metodikasida, umuman, o'quv jarayonida mashqlar bilan ishlash darsni boyitadigan va takomillashtiradigan vositalardan biri deyish mumkin. Bu yo'nalishda tadqiqot ishlarini olib borgan metodist olimlar tomonidan mashqlar tizimiga turlicha ta'riflar beriladi.

Ye.I. Passovning ta'rificha, mashqlar tizimi — til o'rganishda maxsus tashkillashtiriladigan faoliyat turi hisoblanadi. Birinchidan, mashqlarda har doim ham biror maqsad ko'zda tutiladi. Ikkinchidan, mashqlar tartibsiz harakat turi emas, balki maxsus tayyorgarlik asosida ishlab chiqiladigan, savollar va topshiriqlardan, bajarilish shartlari izohlab beriladigan bir jarayon hisoblanadi. Uchinchidan, mashqlar har doim harakatning bajarilishini va uni yanada takomillashtirishni nazarda tutadi, shuning uchun ham ular bir necha marta takroriy bajariladi (4, 7–15). M.S. Il'inning ta'rifiga ko'ra, mashqlar tizimiga darsda o'quv ishlarining asosini tashkil qiladigan va nutqqa doir bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga, takomillashtirishga yo'naltirilgan o'quv mashg'ulotlari sifatida qaraladi (3, 5–12). I. N. Bim va boshqa mualliflarning

fikrlariga ko'ra, mashqlar o'quv jarayonida kommunikativ va kommunikativ-shartli vazifalarni hal qilish jarayoni hisoblanadi (2, 9–11). Mashqlar tizimini ishlab chiqish borasida olib borilgan ko'plab izlanishlar bu mavzuning atroflicha o'rganilganligini ko'rsatadi. Bu borada dastlabki tadqiqot mualliflaridan biri E.P. Shubin og'zaki nutqqa doir o'rgatuvchi yoki shug'ullantiruvchi mashqlarni tizimlashtirgan (7, 5–7).

XX asrning 60-70-yillarida esa chet tillarini o'qitish metodikasida mashqlarning muloqot qilishga yo'naltirilganligi tamoyiliga murojaat etila boshlandi va ilmiy-tadqiqot ishlarining mazmuni yanada boyiy boshladi. E.Yu. Sosenko esa nutqiy faoliyat turlaridan gapirish bo'yicha ko'nikma va bilimlarni o'rgatuvchi kommunikativ tayyorlov mashqlari tipologiyasi masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan (6, 140).

Yuqorida keltirilgan mashqlar tizimiga turlicha yondashuvlar asosida tahlil qilingan tadqiqotlar va bu yo'nalishga doir mavjud bo'lgan adabiyotlarga doimiy murojaat etish, ulardan samarali foydalanish taqozo etiladi.

Asosiy qism. Tahlil qilingan ilmiy mulohazalar asosida aytish mumkinki, mashqlar tizimi bilan ishlashda eng ma'qul, samarador bo'lgan mashqlar tizimidan foydalanish zarur. Mashqlar tizimi yuzasidan salmoqli tadqiqot ishlarini olib borgan va mashqlarni tizimlashtirish bo'yicha samarali natijalarga erishgan Ye. I. Passovning Lipesk maktabida yaratilgan metodikasi ko'pchilik tomonidan ma'qullanadi. Muallif taklif qilgan mashqlar tizimida muloqot madaniyatiga tayyorlashga yo'naltirilgan metodika tavsiya etiladi. O'zbek tilini ikkinchi chet tili sifatida o'rganish bo'yicha o'quv mashg'ulotlarida yuqorida tavsiya etilgan usul bo'yicha mashqlar tizimidan foydalanish samarali bo'ladi, deyish mumkin. Chunki bu mashqlar tizimi chet tillarini o'rganish metodikasida kommunikativ yondashuvga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi, bunday mashqlar til o'rganuvchilarda kommunikativ bilimlarni shakllantiradi. Til o'qitish metodikasida ko'p yillik tajribalar bu mashqlar tizimining chet tillarini o'qitishda nazariy-metodologik asosga aylanganligini ko'rsatadi.

Ye. I. Passov tomonidan taklif qilingan mashqlar tizimiga e'tibor qaratsak, dastlab muallif mashqlarni ikki guruhga ajratganligini ko'rish mumkin: **birinchi** guruh mashqlari tilga doir bilimlarni yoki til tayyorgarligini mustahkamlovchi mashqlar bo'lib, fonetik, leksik va grammatik bilimlarni o'zlashtirishda yordam beradi; **ikkinchi** guruh mashqlari esa nutqiy, kommunikativ va ijodiy mashqlardan iborat. Shuningdek, muallif bu guruhga tarjimaga doir mashqlarni ham kiritish mumkinligini tavsiya etadi. Bundan tashqari ikkinchi guruh mashqlari ham o'z navbatida ikki guruhga ajratiladi: shartli-nutqiy va nutqiy mashqlar. Shartli-nutqiy mashqlarning o'ziga xosligi shundan iboratki, ularda shartlar, topshiriqlarning bir necha bo'lishi bilan ajralib turadi. Nutqiy mashqlar esa ko'proq nutqqa doir ko'nikma va bilimlarni rivojlantirishga yordam beradi (5, 358–370).

Shunga qaramasdan, bugungi kunda chet tillarini o'qitish metodikasida mavjud kompetensiyalarni egallash bo'yicha vazifalar va egallanishi lozim bo'lgan kompetensiyalarni shakllantirish vazifalari atroflicha ishlab chiqilmaganligi mashqlarni muayyan ko'rinishda tizimlashtirishga ta'sir etadi. Chunki, qo'yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda, til o'rganuvchilarning bilim va o'zlashtirish darajasiga aniq talablarni qo'yish mumkin, ya'ni talaba qaysi layoqatlarni (kompetensiyalarni) egallaganligi, uning bilim darajasi, qanday topshiriqlarni bajara olishidan kelib chiqqan holda, mashqlar tizimini ishlab chiqish zarur. Davr talabini hisobga olish, o'quv dasturlariga tez-tez o'zgartirishlar kiritilib turishi ham chet tillarini o'rganish, shu jumladan, o'zbek tilini chet tili, ikkinchi chet tili sifatida o'rganish bo'yicha mashqlar tizimining takomillashtirilib borilishi zarurligini

ko'rsatadi. Tadqiqotimizning vazifalaridan biri sifatida mashqlar tizimining mavjud ko'rinishlarini o'rganib chiqqan holda, bugungi kunda qo'llanayotgan mashqlar turlarining samarali jihatlarini aniqlash zarur. O'zbek tilining chet tili sifatida o'qitilishi tajribasida qo'llanilishi zarur bo'lgan va til o'rganishda yaxshi natijalarga erishishga yordam beradigan mashqlar tizimi va ular yuzasidan tavsiyalarni ishlab chiqish ham dolzarb hisoblanadi. Jumladan, biz taklif etayotgan mashqlar tizimi nafaqat o'zbek tili bo'yicha nazariy bilimlarni mustahkamlovchi mashqlar, balki talabalarining kelajakda tanlagan kasblari bo'yicha muloqotga kirisha olishlari, xalqaro munosabatlar, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalar bo'yicha bilimlarni va muloqot layoqatini egallashlarida yordam berishi ko'zda tutiladi.

Nutqiy faoliyat turlarini egallash va nutq madaniyatini yaxshi shakllantirishda mashqlarga asosiy vosita sifatida qaraladi. Mashqlarni qayta-qayta bajarish har bir bajarilgan harakatni yanada yaxshilash va takomillashtirishga yordam beradi. Chet tilini o'rganish bo'yicha o'quv jarayonida bajariladigan mashqlar o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Har bir mashqning bajarilishiga qo'yiladigan shartlar bir-biriga o'xshash bo'lishi mumkin, lekin aynan takrorlanmasligi zarur. Shuning uchun ham bugungi kunda samarali natijalarga olib keluvchi mashqlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq. Mashqlar belgilangan mavzular doirasida tuzilishi, maqsadga muvofiq bo'lishi, zerikarli bo'lmasligi, talabani qiziqitira olishi ham juda muhim. Shuning uchun ham mashqlar tizimi ustida ishlashda kompetensiyali yondashuvdan foydalanish mashqlarning qiziqarli va samarali bo'lishiga olib keladi. Mashqlar ustida ishlashni mustaqil ishning bir ko'rinishi ham deyish mumkin. Amaliy mashg'ulotlar davomida bajariladigan mashqlar guruh a'zolari bilan birgalikda bajarilishi yoki har bir talaba bajarishiga mo'ljallangan bo'lishi kerak. Mashqlar tizimi talabalarining individual xususiyatlari, topshiriqlarni qay darajada mustaqil bajarishlarini ham hisobga olgan holda tuzilishi kerak. Shuning uchun ham biz tavsiya etadigan mashqlar tizimi uchun quyidagi talablarni asosiy mezon sifatida belgiladik: 1) nazariy bilimlarni egallash, mustahkamlash, o'tilgan mavzularni takrorlash uchun mo'ljallangan mashqlarning tushunarli va qiziqarli bo'lishi; 2) mashqlarning o'quv jarayonida ko'zda tutilgan maqsadga mos kelishi o'quv materialini o'zlashtirishga, o'tilgan mavzularni mustahkamlashga va bilimlarni chuqur o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lishi; 3) talabalarining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mustaqil ishlash va guruh bilan ishlashga mo'ljallangan bo'lishi; 4) darslikda mavzularning berilish tartibi o'quv dasturida belgilangan mavzular ketma-ketligi asosida tuzilgan bo'lishi; 5) mashqlarni tuzishda interfaol usullardan va yangi texnologiyalardan foydalanilgan bo'lishi; 6) mashqlarning mazmunida foydali va qiziqarli ma'lumotlarning bo'lishi. Bu talablar mashqlarning esda qolarli bo'lishi, mavzularning puxta o'zlashtirilishi va muloqotga kirishishni ta'minlaydi. Chet tillarini o'qitish metodikasi asosida til o'rganuvchilarda muloqot layoqatini shakllantirishda grammatikaga oid bilimlar asosiy o'rinni egallaydi. Shuning uchun ham grammatik qoidalarni puxta o'zlashtirmasdan erkin va bema'lol gapira oladigan darajada muloqot layoqatini egallash mumkin emas. Buning uchun esa o'quv jarayonini reja asosida tashkil qilish zarur. Mashqlar tizimi bo'yicha metodist olimlarning nazariya va amaliyotni uzviylashtirgan fikrlari, tajribalariga tayangan holda, bir necha bakalavr guruh talabalarining erishgan natijalari asosida ba'zi xulosalarni aytish mumkin. Mashqlar tizimi ustida ishlashda o'zbek tilini o'rganishning nazariy qismiga oid bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradigan, o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlovchi va takrorlash mashqlarini tuzishda ularni to'rt guruhga bo'lish mumkin: 1) fonetik-leksik mashqlar to'plami; 2) o'zbek tili

grammatikasini o'zlashtirish bo'yicha mashqlar to'plami; 3) nutq mashqlari to'plami; 4) tarjima mashqlari to'plami.

Birinchi guruh mashqlarini tuzishda quyidagilarga amal qilinishi shart: 1) fonetikani o'zlashtirishga doir mashqlar to'plamini yaratishda o'zbek tili fonetikasidagi o'ziga xos bo'lgan [o'], [q'], [g'], [h] tovushlarining talaffuzini yaxshi o'zlashtirish uchun mo'ljallangan mashqlarni tuzishga e'tibor berish lozim. Rus va o'zbek tillarida amaliy jihatdan deyarli bir xil talaffuz qilinuvchi 11ta undosh [b], [d], [z], [m], [n], [p], [r], [s], [t], [f], [ch] tovushlari bo'yicha mashqlar tuzishga, rus tilidagi [в], [г], [ж], [к], [л], [х], [ш] tovushlaridan farqli talaffuz qilinadigan o'zbek tilidagi [v], [g], [j], [k], [l], [x], [sh] tovushlarining talaffuzi va yozilishi bo'yicha mashqlarni tuzib chiqish.

Har bir guruhdagi mashqlarni ham asosiy mashqlar deyishimiz mumkin. Chunki bu guruh mashqlarini bajargan talaba o'zbek tili fonetikasidagi barcha tovushlarni talaffuz qila oladi (ayniqsa, o'ziga xos bo'lgan [o'], [q'], [g'], [h] tovushlarining talaffuzini o'rganagan bo'ladi va gaplarni to'g'ri tuza oladi.

1-mashq. A a harfi bilan boshlanuvchi va tugallanuvchi so'zlarning yozilishi va o'qilishiga e'tibor bering. So'zlar bilan tanishing, ularni rus tiliga tarjima qiling. Audiomatn yordamida bu so'zlarning o'qilishini takrorlang.

Avra, ada, aya, aylana, ayniqsa, ayyorona, aza, aka, alla, alloma, alamzada, allanima, allaqancha, aloqa, alohida, amma, ammakivachcha, ana, angishvona, andava, andisha, andoza, antiqa, ancha, an'ana, arava, arafa, arra, arpa, arzanda, ariza, archa, askiya, aslaha, aslida, asta, atala, atroflicha, afsona, ashula, aqiqa, ag'darma.

Adiba, Aziza, Asila, Aqiqa, Amina, Anora (shaxs otlari)

2-mashq. Boshi va oxiri K k harfi bilan yoziluvchi so'zlarning o'qilishiga e'tibor bering. Soz'larni rus tiliga tarjima qiling, tub so'zlar va yasama so'zlarni alohida yozing. Audiomatn yordamida bu so'zlarning o'qilishini takrorlang.

Kavak, kaklik, kanizak, kamalak, kamtarlik, kemtik, kamchilik, kaltak, kaltakesak, kapalak, kasallik, katak, katalak, kelajak, kelinchak, kekirdak, kenglik, kesak, keyinchalik, kerak, kepak, kepanak, kiyik, kindik, kiprik, kichik, kuzak, kuyuk, kuyunchak, kunlik, kundalik, kurak, kurmak, kurtak, kuchuk, koptok, ko'zoynak, ko'ylak, ko'k, ko'm-ko'k, ko'krak, ko'mak, ko'ngilsizlik, ko'lmak, ko'prik, ko'plik, ko'pchilik, ko'ppak, ko'rak, ko'rk, ko'rik, ko'richak, ko'rnamak, ko'rshapalak, ko'sak, ko'shk, ko'hlik.

Ko'mak (shaxs oti), Ko'hak (joy nomi).

Yuqoridagi mashqda berilgan so'zlar ustida ishlash talaba uchun ancha qiziqarli bo'ladi, **k** tovushining so'z boshida va oxirida kelgan so'zlardan tuzilganligi o'zbek tilida bu kabi so'zlarning ko'pligi haqida shunchaki ma'lumot bermaydi, balki talabalarni bu kabi so'zlarni tinglab tushunishga va ularni tovushlarni talaffuz qilishlariga moslashtiradi. Fikrimizning isboti sifatida keyingi **q** tovushi bilan berilgan mashq talabalar talaffuz qilishga qiynaladigan, o'zbek tilining o'ziga xos fonetik jihatlarini ko'rsatib beruvchi **q** tovushini tezroq o'zlashtirishlariga yordam beradi.

3-mashq. Q q tovushi bilan boshlanuvchi va tugallanuvchi so'zlarning yozilishi va o'qilishiga e'tibor bering. So'zlar bilan tanishing, ularni rus tiliga tarjima qiling. Berilgan so'zlarni so'z turkumlariga ko'ra yozing. Audiomatn yordamida bu so'zlarning o'qilishini takrorlang.

Qaviq, qadoq (2), qaymoq, qayiq, qayliq, qaynoq, qayroq, qaytariq, qalpoq, qaltiroq, qaldiraq, qantariq, qarmoq, qarnoq, qarimsiq, qarsildoq, qarqunoq, qatiq, qattiq, qaqanoq, qaqildoq, qasnoq, qashshoq, qiziq, qizamiq, qizaloq, qizg'aldoq, qizg'anchiq, qirq, qirqquloq, qirqoyoq, qirg'oq, qiynoq, qiyiq, qiyshiq, qiliq, qiltiriq, qiltanoq, qilg'iliq, qipchoq, qisiq, qishloq,

quvnoq, quduq, quymoq, quyuuq, quyonchiq, quyruq, quloq, qulluq, qumoq, quroq, quruq, qurumsaq, quchoq, qovurdoq, qovoq, qozoq, qoloq, qopqoq, qopchiq, qorishiq, qoshiq, qochoq, qoq, qo'zichoq, qo'ltiq(2), qo'ng'iroq, qo'riq, qo'rqqoq, qo'shiq, qo'shaloq.

Izoh: qadoq (2), qo'ltiq (2) ko'rinishida berilgan holat bu so'zlarning ikkinchi ma'nolari borligini ko'rsatadi.

Quvondiq (shaxs oti), Qamchiq dovoni, Qiziriq tumani, Qo'yliq mavzesi (joy nomlari).

Qildan qiyiq qidirmoq (frazologizm).

Ko'rinib turibdiki, berilgan barcha misollarda **q** tovushining o'zbek tili fonetikasidagi o'rni, aniq talaffuz qilinishi bu tilni o'rganuvchilarning diqqatini yanada jalb etadi. Shu o'rinda shoir Erkin Vohidovning **q** tovushi bilan boshlanuvchi quyidagi sakkiz misradan iborat she'ri ham talabalarning diqqatini o'ziga tortishi tabiiy:

Qaro qoshing,

qalam qoshing,

Qiyiq qayrilma qoshing, qiz.

Qilur qatlimga qasd qayrab –

Qilich qotil qaroshing, qiz.

Qafasda qalb qushin qiynab,

Qanot qoqmoqqa qo'ymaysan.

Qarab qo'ygil qiyo,

qalbmni qizdirsin quyoshing, qiz (1, 239).

Alliteratsiya janrida yozilgan ushbu she'r tilni o'rganishga jalb etish, qiziqtirish jarayonida yordam beradi. To'g'ri, fonetikani o'rganish davomida bu she'rni yod olish boshqa millat vakillariga qiyinchilik tug'dirishi mumkin, lekin birinchi yarim yillik oxiriga kelib, talabalar bu she'rni muvaffaqiyat bilan yodlay oladilar. She'r matni kitobda va audiomatnda berilganligi uni ham o'qib, ham tinglab tushunish va so'zlarni o'zlashtirish, shuningdek, she'rni yod olishga yordam beradi.

4-mashq. Audiomatni eshitish va o'qing.

Ka: kam, karam, kamtar, kamol, kampir, kasal

Ku: kun, kuz, kunduz, kundalik, kurak, kurtak

Ki: kiy, kiyim, kir, kirim, kiyik, kiprik, kirpi

Ke: kel, kelin, kelinchak, kes, ket, ker, kerak

Ko': ko'z, ko'za, ko'zoynak, ko'k, ko'ylak, ko'rk.

2)Ga: gap, gapir, gala, gaz, birga, ko'rgazma

Gi: giyoh, gilam, gilos, gina, girdob, supurgi,

Go: gov, gov mish, goh, saylgoh, oliygoh, o'yingoh

Gu: gul, guruh, gugurt, guruch, gumbaz, ko'zgu

Go': go'dak, go'zal, go'l, go'sht, go'shak

3)Ha: havo, ham, hali, hamisha, har, hamma, hammom

He: hech, hech kim, hech qachon, hech bir, hechqisi yo'q,

Hi: hid, hidlamoq, hiyla, hikmat, hikoya, himoya, hilol, his, hisoblamoq

Ho: hovli, hovuch, hodisa, hozir, hozirjavob, hol, hosil, homiy

Hu: hujjat, hujum, hunar, hurmat, husn, husndor, hush, hushyor

Ho': ho'kiz, ho'l, ho'llamoq, ho'ngramoq, ho'plamoq

4)Xa: xabar, xavf, xayol, xazina, xayr, xayrli, xayrixoh, xalq, xalqaro

Xi: xiyol, xiyonat, xizmat, xizmatchi, xina, xipcha, xira, xirmon, xislat

Xo: xodim, xoin, xol, xola, xom, xona, xonadon, xonanda, xonim, xontaxta

Xu: xuddi, xudbin, xullas, xulosa, xulq, xunuk, xum, xushbo'y, xushmuomala,

Xo': xo'ja, xo'p, xo'randa, xo'rlamoq, xo'roz, xo'rsinmoq, xo'sh, xo'shlamoq

5)Qa: qand, qalam, qari, qani? qayerda? qanday? qachon? qaysi?

Qo: qon, qol, qoz, qozon, qor, qora, qorin, qop, qorbobo, qopqon

Qu: quv, quvnoq, ququq, quyuuq, quyruq, quruq, qurmoq, quvmoq

Qi: qir, qirq, qirmoch, qirg'oq, qiliq, qiyiq, qisiq, qishloq
Qo': qo'y, qo'l, qo'lqop, qo'pol, qo'rg'on, qo'shimcha, qo'shin,
6) *G'a: og'a, tog'a, g'ayrat, g'azab, g'alaba, g'alati*
G'o: g'oz, qog'oz, g'or, qayrag'och, qaldirg'och
G'u: g'uncha, g'urur, g'ulu, g'umbak, g'uvillamoq
G'i: G'iyos, g'izillamoq, g'ir-g'ir, qo'ng'iroq, qirg'iy
5-mashq. *Audiomatni eshiting va o'qing.*

Tez aytishlar.

1. Temur tillani topdimi, tillani Temur topdimi?

2. To'rta turpni to'g'radik, turpni to'g'ri to'g'radik.

3. Qorboboning qalpog'ini qulog'iga qo'ndiramiz,

Qorqizini, qopini qorbo'ronda qoyillatib qidiramiz,

Qand-qurs-u qo'girchog'in qay qo'rg'onda qoldiramiz?

4. Belingga belbog' bog'lab, bobomdek bog'bon bo'lmoqchisan?

5. Charos childirmani chiroyli chaladi, childirmani chin yurakdan chalganida, chor-atrofga taraladi...

O'zbek tilini boshlang'ich bosqichda o'rganilishiga mo'ljallab, MDH davlatlari uchun yozilgan "O'zbek tili" darsligimizda tilning fonetika qismi bo'yicha 25ta mashq berilgan, mashqlarning deyarli aksariyat qismi audiomatn sifatida darslikka ilova qilingan, kitob sahifalarida audiomatnlar maxsus belgilar bilan ko'rsatilgan. Bu aydiomatnlar tinglab, talaffuz qilish uchun mo'ljallangan. Talaffuz mashqlaridan iborat bo'lgan va har bir mavzu bo'yicha berilgan mashqlar leksikaga oid mashqlardan, talabalarning so'z boyligini oshirish uchun boshqa darsliklar, o'quv qo'llanmalari, lug'atlardan ham foydalanishlarini talab qiladi. So'z ma'nolari, sinonim, omonim va antonim so'zlar bilan tanishtirib boriladi.

Ikkinchi guruhga kiruvchi, o'zbek tili grammatikasini o'zlashtirish bo'yicha mashqlar to'plamining mazmuni quyidagilardan iborat bo'lishi kerak: 1) ko'plik, egalik va kelishik qo'shimchalarini tushuntirib, izohlab beruvchi mashqlar; 2) zamon va shaxs-son qo'shimchalarini o'zlashtirishga yordam beruvchi mashqlar; 3) morfologiya va sintaksisga oid bilimlarni to'liq o'zlashtirishga yordam beruvchi, ularni maustahkamlovchi va takrorlash mashqlari.

Bu qismda tavsiya etiladigan mashqlar ko'plik, egalik va kelishik qo'shimchalarini o'zlashtirishda yordam beradi, talabalarning muloqotga kirisha olishlari uchun zamin yaratadi, biror axborotni uzatish, suhbatda ishtirok etish, savollar berish va savollarga javob bera olish layoqatini mustahkamlaydi. Shuningdek, bu guruhga kiritilgan mashqlar grammatik bilimlarni to'liq egallashni nazarda tutadi, chunki bu mashqlarning mustaqil bajarilishi talabaning nazariy bilimlari to'liq va yetarli ekanligini ko'rsatadi. Til materialini o'zlashtirishga mo'ljallangan mashqlar grammatik qoidalarni yaxshi o'zlashtirishni, ularni eslab qolish uchun bu qoidalarga doimiy ravishda murojaat etishni talab qiladi, vaqt nuqtai nazaridan esa kamroq vaqt oladi, ko'p hollarda har bir mashqni bajarish shartidan tashqari mashqning qanday bajarilishi bo'yicha namuna ham beriladi. Shartlari aniq bo'lgan va namuna berilgan mashqlarni til o'rganuvchilar tez bajaradilar. Shuning uchun ham til materialini o'zlashtirishga oid mashqlar yozma ravishda bajariladi, chunki mashqlarni yozma ravishda bajarish materialni puxta o'zlashtirishga, uni eslab qolishga yordam beradi, so'z va qo'shimchalar talaffuzini hisobga olib, ularni og'zaki ravishda ham bajarish mumkin, lekin ularni faqat og'zaki bajarish maqsadga muvofiq emas. Bunday mashqlarning nutq mashqlaridan farqli jihati shundaki, ularda nutq vaziyatlari yoki matn ustida ijodiy ishlash imkoni deyarli bo'lmaydi. Mashqlardan oldin mavzular bo'yicha grammatik sharhlarning, qoidalarning misollar yordamida izohlanishi bu mashqlar bo'yicha ishlashni osonlashtiradi.

Grammatikaga oid mashqlar, ya'ni til materialini o'zlashtirish bilan bog'liq mashqlar nutq mashqlari bilan ketma-ketlikda berilishi til o'rganishda qulaylik yaratadi.

Uchinchi guruh mashqlari esa nutq mashqlari hisoblanadi, bu mashqlarni ham o'z navbatida quyidagi turlarga bo'lish mumkin: 1) o'zbek tilida xabar mazmunidan iborat kichik matnlarni yozish (6–8 gapdan iborat) yoki transformatsion matnlarni yozish bo'yicha topshiriqlarni bajarish, ya'ni o'rtacha hajmadagi matnlar (10–12 gapdan iborat), mazmuni va hajmi kengaytirilgan mashqlarni yozish (20 va undan ortiq); 2) o'zbek tilida lingvomadaniyatshunoslikka oid matnlar haqida so'zlab berish (o'zbek urf-odatlari, O'zbekiston tarixi, madaniyati haqida matnlar, O'zbekiston bayramlari); 3) aniq mavzularda taqdimot loyihalarini tayyorlash, bu matnlarni tavsiya etilgan mavzular bo'yicha talabalar tayyorlaydilar, taqdimot loyihalari uchun qo'shimcha manbalardan, kompyuter, internet texnologiyalaridan foydalanadilar. Ijodkorlik talab qilinadigan bu ko'rinishdagi nutq mashqlari talabalarni muloqot layoqatiga tayyorlovchi mashqlar hisoblanadi.

To'rtinchi guruh mashqlari esa tarjima mashqlaridan iborat. Til o'rganishning dastlabki bosqichidan so'z va soz' birikmalarini, sodda gaplarni tarjima qilish yordamida talabalar qiziqarli jarayonni boshlaydilar. Og'zaki tarjima, yozma tarjima qilish, keyingi bosqichlarda esa audiomatnlarni eshitib tarjima qilish va shu tariqa keyingi bosqichlarda sinxron tarjima qilishda o'zlarini sinab ko'rishlari mumkin. Tarjima qilish bo'yicha mashqlar auditoriyada ko'proq mustaqil topshiriqlar tarzida, shuningdek, uyga vazifa sifatida ham beriladi. O'zbek tilidan rus tiliga, rus tilidan o'zbek tiliga tarjima mashqlari beriladi. O'zbek tilidan ona tili, ya'ni rus tiliga tarjima qilish jarayoni oson kechadi, chunki talabalar maktab dasturlariga ko'ra rus tilida grammatik kategoriyalarni yaxshi o'zlashtirgan bo'ladi, bunday tarjima mashqlarini bajarishda talabalar tomonidan xatolarga yo'l qo'yilishi kam uchraydi. Asosiy qiyinchilik rus tilidan o'zbek tiliga o'girish bo'yicha mashqlarni bajarishda yuzaga keladi. Bu ko'rinishdagi mashqlarni bajarishda talabalarning otlardagi egalik, kelishik qo'shimchalari, fe'llardagi zamon va shaxs-son, mayl, nisbat qo'shimchalarini qay darajada to'g'ri yoza olishlarida ko'rinadi. Shu o'rinda til materialini o'zlashtirish mashqlari, nutq va tarjima mashqlarining bir-biriga qanchalar chambarchasligini ko'rish mumkin. Leksikaga, grammatikaga oid til materialini o'zlashtirish mashqlari va nutq mashqlariga oid yana shunday bir mashqlar turi borki, ularni **transformatsion** mashqlar deb yuritiladi. Transformatsion mashqlarda beriladigan topshiriqlarni yuqorida sanab o'tilgan har bir guruhga oid mashqlarni bajarishda qo'llash mumkin. Bu topshiriqlarning ko'p variantli ekanligidan iborat. Albatta, til mashqlarida ham, nutq mashqlarida ham, shakl o'zgarishi va mazmun o'zgarishlari yuz beradi, lekin nutq mashqlarida qolipdan chiqish, erkinlik va ijodkorlik kuchliroq bo'ladi. Masalan, leksikaga oid mashqlarda so'zlarni guruhlash, ularning sinonimlarini aniqlash, antonimlarini topish, birlik va ko'plik shakllarini almashtirib qo'llashga doir mashqlarni berish mumkin. Grammatikaga doir mashqlarda esa kelishik, egalik qo'shimchalari, fe'lning shaxs-son, zamon, nisbat, mayl ko'rinishlari, fe'lning vazifadosh shakllariga tegishli qo'shimchalarni o'zgartirish bo'yicha mashqlarni berish mumkin. Shuningdek, so'roq gaplarni darak gaplarga aylantirish, sodda gaplarni qo'shma gaplarga yoki qo'shma gaplarni bir necha sodda gaplarga aylantirish kabi topshiriqlardan iborat mashqlarni berish mumkin.

Nutq mashqlarida matnning shaklini va mazmunini o'zgartirish bo'yicha topshiriqlar berish to'g'riroq bo'ladi. Nutq mashqlari ko'proq mazmun bilan ishlashni, matn mazmuniga ijodkorlik bilan yondashishni talab

qiladi. Masalan, “Mening guruhim” mavzusida berilgan 8-10 gapdan iborat o‘rtacha hajmdagi matni guruh haqida batafsil ma’lumot beruvchi kattaroq matnga aylantirish bo‘yicha topshiriqni bajarish talabalar uchun ancha qiziqarliroq bo‘ladi. Ya’ni guruh haqida yoziladigan matnlar bir-biriga o‘xshash bo‘lishi yoki bir-biridan tamomila farq qiladigan matnlar bo‘lishi mumkin, chunki har bir talaba o‘z fikrini yozishga harakat qiladi, matnlar hajmiga va so‘z qo‘llash usuliga ko‘ra turlicha bo‘lishi mumkin.

Matn ustida ishlash mashqlarida esa topshiriqlarni turlicha ko‘rinishda berish mumkin. Masalan, tarjima qilish, matnga savollar tuzish, savollarga javoblar yozish, matni soddalashtirish, matni kengaytirish, matni davom ettirish, matnga xulosa yozish va hokazo.

Tilga oid bilimlar va fikrni ifodalash, nutqqa doir ko‘nikma va bilimlarning qay darajada o‘zlashtirilganligini ko‘rish mumkin.

Xulosa va tavsiyalar. Yuqorida keltirilgan ilmiy-nazariy adabiyotlar tahlili va o‘quv jarayonida qo‘llangan ish usullarini amaliyotga tatbiq etish jarayonida muayyan xulosalarga kelish mumkin. Har bir guruh mashqlari bilan ishlashda o‘qituvchining qiziqarli ish uslubi, individual yoki kompetensiyali yondashuvning bo‘lishi juda zarur. Shu tariqa talabalarning o‘zbek tilida to‘g‘ri so‘zlash va erkin muloqotga kirisha olish ko‘nikmalari rivojlandi. Mashqlarni bajarish bo‘yicha nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilishning yaxlit bir butunlikka aylanishi o‘zbek tilini o‘rganishda jiddiy yordam beradi.

Til materialini o‘zlashtirish bo‘yicha mashqlar va nutq mashqlarini o‘zlashtirish bo‘yicha mashqlar bajarish ustida muntazam ishlash, og‘zaki va yozma mashqlarni, shuningdek, tarjima mashqlari va ularning transformatsion ko‘rinishlarini, ya’ni boshqa ko‘rinishlarda o‘zgartirib bajarilishi talabalarning bilimlarini mustahkamlaydi, o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Mashqlarni bajarish va nazorat o‘z-o‘zini nazorat qilishning yaxlit bir butunlikka aylanishi o‘zbek tilini o‘rganishda yordam beradi. Boshqacha aytganda, mashqlar faqat til materialini o‘zlashtirish vositasi bo‘lib qolmaydi, nutq faoliyati turlarining *tinglab tushunish, o‘qish, gapirish* va *yo‘zuvga doir* bilimlarni o‘rganish vositasi hisoblanadi.

O‘zbek tilini ikkinchi chet tili sifatida o‘rganish jarayonida o‘qituvchilar uchun quyidagi **tavsiyalarni** berish mumkin: 1) har bir guruh mashqlarini tuzishda yangi materiallardan foydalanish, tanlangan mashqlar talabalarning kundalik turmush tarzida muloqotga kirishishlari uchun yordam beradigan mazmunda bo‘lishiga erishish; 2) talabalarning ijodkorlik bilan yondashishlariga imkon beradigan mazmundagi topshiriqlarni mashqlar tarkibiga kiritish (aniq berilgan mavzularda esselar yozish, taqdimot loyihalarini tayyorlash, turli mavzularda ijodiy matnlar yozish; 3) lingvomadaniyatshunoslikka oid matnlar berish; 4) savol-javoblardan iborat bo‘lgan dialoglar, poliloglar (bir necha so‘zlovchi ishtirok etadigan suhbatlar) uyushtirish.

Bu tavsiyalar mashqlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirishga, o‘zbek tilini ikkinchi chet tili sifatida o‘rganayotgan talabalarda o‘zbek tilida nutq madaniyatini shakllantirishda foydali bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бакиева Г. Х., Караяева Б. Х., Коршунова Е. Н., Краева И. А., Тешабаева Д. М., Фролова Г. М. Узбекский язык для стран СНГ. — М.: ФГБОУ ВПО МГЛУ, 2012. — 331 с.
2. Бим И.Л., Пассов Е.И. Книга для учителя к учебнику немецкого языка. — М., 1986. — 78 с.
3. Ильин М. С. Основы теории упражнений по иностранным языкам. — М., 1975. — 152 с.

4. Пассов Е. И. Коммуникативные упражнения. Пособие для преподавателей. — М. – Л.: Просвещение. 1967. — 99 с.
5. Пассов Е.И. Коммуникативное иноязычное образование. Концепция развития индивидуальности в диалоге культур. — Липецк: 1989. — 625 с.
6. Сосенко Е.Ю. Коммуникативные подготовительные упражнения, — М.: Русский язык, 1979. — 140 с.
7. Шубин Е. П. Основные принципы методики обучения иностранным языкам. — М.: Учпедгиз, 1963. — 191 с.

References

1. Bakieva G. Kh., Karaeva B. Kh., Korshunova E. N., Kraeva I. A, Teshabaeva D. M., Frolova G. M. *Uzbekskii yazyk dlya stran SNG* (Uzbek for the CIS countries), Moscow: FGBOU VPO MGLU, 2012, 331 p.
2. Bim I.L., Passov E.I. *Kniga dlya uchitelya k uchebniku nemetskogo yazyka* (A book for a teacher to a German language textbook), Moscow, 1986, 78 p.
3. Il'in M.S. *Osnovy teorii uprazhnenii po inostrannym yazykam* (Fundamentals of the theory of exercises in foreign languages), Moscow, 1975, 152 p.
4. Passov E. I. *Kommunikativnye uprazhneniya. Posobie dlya prepodavatelei* (Communication Exercises. A Manual for Teachers), Moscow, Leningrad: Prosveshchenie, 1967, 99 p.
5. Passov E.I. *Kommunikativnoe inoyazychnoe obrazovanie. Kontseptsiya razvitiya individual'nosti v dialoge kul'tur* (Communicative Foreign Language Education. The Concept of the Development of Individuality in the Dialogue of Cultures), Lipetsk: 1989, 625 p.
6. Sosenko E.Yu. *Kommunikativnye podgotovitel'nye uprazhneniya* (Communicative Preparatory Exercises), Moscow: Russkii yazyk, 1979, 140 p.
7. Shubin E. P. *Osnovnye printsipy metodiki obucheniya inostrannym yazykam* (Basic Principles of Foreign Language Teaching Methodology), Moscow: Uchpedgiz, 191 p.